

SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KELITIRIB CHIQARUVCHI SABABLARI

Karakulova Umida Abduvakilovna

O'zMU Jizzax Filiali Oila Psixologiyasi Kafedrasida o'qituvchisi

Pardayev Xumoyun Farxod o'g'li

O'zMU Jizzax Filiali Yoshlar psixologiyasi 2-kurs talabasi

Raxmonqulova Durdona Zokirjon qizi

O'zMU Jizzax Filiali Yoshlar psixologiyasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'smirlik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari, xulq - atvorning shakllanishi, ulardagi suitsidal xulq - atvor korinishlari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ontogenez, o'smirlik, giperaktivlik, agressiya giyohvandlik, qaysarlik, ota-ona, suitsidal xulq-atvor.*

A.G.Ambrumovning fikricha, suitsidal xulq-atvorni to'g'ri tushunish uchun 2 ta savolga javob berish zarur: odam nima uchun o'z joniga qasd qildi va nimaga bu ishga qo'l urdi.

Birinchi savolga suitsidentning sharoitini tahlil qilib javob berish mumkin: hayotiy vaziyatlar, ya'ni suitsidga qo'l urishga olib kelgan holatlar, tashvishlarga asoslangan.

Ikkinchi savolga suitsidal xulq-atvorning sabablarini o'rganib, odam nima uchun suitsidga qo'l urganini va qanday maqsadga erishmoqchi ekanligini taxmin qilib topish mumkin.

Bir nechta xorijiy tadqiqotlar aynan shaxsdagi suitsidal xulq-atvor muammolariga bag'ishlangan. Rus suitsidologiyada V.A.Tixonenkoning klassifikatsiyasi ommalashib, unda suitsidning 5 ta yetakchi sabablari belgilangan: Xususan, "chaqiruv", "norozilik", "qochish", "o'zini o'zi jazolash" va "rad etish".

"Chaqiruv" ("yordamga chaqirish") tipidagi suitsidal reaksiya. Bu guruhga kiruvchi hodisalarda shaxs atrofdagilarning diqqatini tortish, ulardan yordam va madad olish maqsadida suitsidga qo'l uradi. "Nima uchun bunday qildingiz?" degan savolga: "Atrofdagilar meni qanday mushkul ahvolga tushib qolganimni tushunishlari uchun" deb javob beradi. Shuningdek, bu guruhga namoyishkorona-shantaj urinishlari, ya'ni ma'lum bir jamoat vakillariga ta'sir ko'rsatish uchun (turmush o'rtog'i, ota-ona, bolalar) amalga oshiriladi.

Bunday tipdagi sabablari mavjud shaxs suitsidni amalga oshirishdan avval, har doimgidek, to'g'ridan-to'g'ri yoki orqadan o'z maqsadi haqida yoki o'zini o'ldirmoqchiligini bildirib po'pisa qiladi. Suitsidal urinish, odatda, atrofdagilar ishtirokida yoki suitsident shunday harakat qiladiki, yaqinlari uning qilmishidan voqif bo'ladilar (masalan, o'zini dori preparatlari bilan zaharlagani zahoti tanishlariga qo'ng'iroq qiladi va o'zining xatti-harakati haqida aytadi).

“Yordamga chaqiruv” tipidagi shaxs o‘z xatti-harakatining oqibatini o‘ylamaydi hamda ko‘proq atrofida gilar uning qilmishiga qanday munosabatda bo‘lishlari qiziqtiradi. Bu tipdagi yoshlar uchun vosvosga uchrash, jazavaga tushish va o‘zini yosh bolalarcha harakat qilish xosdir.

“Norozilik” tipidagi suitsidal reaksiya. Bu guruhdagi hodisalarda odam mojaroli vaziyatlarda nafrat, g‘azab tuyg‘ularini his qiladi va o‘ziga shikast etkazuvchi harakatlarga qo‘l urib, bo‘layotgan hodisalarga o‘z noroziligini bildiradi. Suitsidal harakatdan maqsad nimaligini bunday shaxslar, odatda anglamaydilar hamda “O‘zimning nafrat (alam) imni ifodalash uchun”; “Aybdorlarni jazolash uchun”, degan javoblarni beradilar. O‘ziga shikast etkazish harakatlari, odatda, rejalashtirilmaydi, “qisqa tutashuv” xarakteriga ega bo‘lib, ko‘pincha, spirtli ichimliklar yoki narkotik ta‘sirida amalga oshiriladi. Bunday tipdagi reaksiya aksariyat ta‘sirchan, kuchli emotsional xususiyatlarga ega yoshlarga xosdir.

“Qochish” tipidagi suitsidal reaksiya. Bu guruhga mansub hodisalar shundayki, bunda odam biron-bir qiyin, ruhiy shikast etkazuvchi hayotiy vaziyatlar ta‘sirida chorasizlik, ojizlik, natijasizlikdan tashvishlanish ta‘sirida (vaziyatdan qochish uchun) suitsidga qo‘l uradi.

Xususan, bu jarayonda suitsidal urinishni sodir etilishiga asosiy sabablarni aniqlash maqsadida

“Nima uchun bunday qildingiz?” degan savolga, odatda,

“Vaziyat juda og‘ir edi, men u yog‘iga nima qilishni bilmay qoldim”;

“Og‘ir vaziyatdan qochish, u haqdagi o‘ylardan chalg‘ish maqsadida va boshqalar.

Bu guruhga yana shaxsning yomon emotsional tashvishlardan qutulish yoki ulardan chalg‘ish (azoblardan qochish) maqsadida suitsidal urinishga qo‘l urish hodisalari ham kiradi. Bunday shaxslar suitsidal harakatlardan maqsad nimaligi so‘ralganda: “Buni chidab bo‘lmaydigan ruhiy og‘riqlardan qutulish uchun qildim”; “Xavotir va tushkunlikdan qutulishni istadim”, deb javob beradilar. “Qochish” tipiga oid sabablar keng tarqalganligi bois, bu ko‘rinishdagi haqiqiy suitsidal urinishga nisbatan 50–70% odamlarda uchraydi. Bu tipdagi reaksiyalar katta yoshli guruhlar – 30 dan oshgan erkak va ayollarga xosdir. Suitsid o‘zini osish, o‘zini zaharlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ba‘zan, o‘z joniga qasd qilish qarori qabul qilingach (suitsid qarori osonlikcha qabul qilinishi uchun), spirtli ichimliklar iste‘mol qilinadi.

“O‘zini o‘zi jazolash” tipi bo‘yicha suitsidal reaksiya. Ushbu guruhdagi hodisalarda odam suitsidga uyat, aybdorlik, o‘zidan nafratlanish kechinmalari natijasida qo‘l uriladi. Bunday shaxslarda suitsidal harakatdan maqsad nima ekanligi so‘ralganda, odatda: “O‘zimni jazolamoqchi edim”, deb javob beradilar. Masalan, bir narkoman narkotik iste‘molidan so‘ng oilasiga tegishli qimmatbaho ziynat buyumlarining katta qismini sotib yuborib, so‘ng qilgan ishidan tashvishlanib, uyat va aybdorlik hissi natijasida og‘ir suitsidga qo‘l uradi. “O‘zini o‘zi jazolash” tipi o‘rta yoshlilarga (ko‘pincha ayollar) xosdir. O‘z joniga qasd qilish, ko‘pincha, shafqatsiz usulda amalga oshiriladi (o‘zini osish, balandlikdan tashlash va boshqalar).

“Rad etish” tipidagi suitsidal reaksiya. Bu guruhdagi hodisalarga odam o’lishni judayam xohlaganda qo’l uradi. Odatda, bunday holatda yashashdan ma’no yo’q, degan qaror bilan bog’liq (masalan, yaqin insonni yo’qotish, og’ir kasallik, jamiyatdagi avvalgi mavqeini tiklashning imkoni bo’lmagach). Suitsiddan maqsad nimaligi haqidagi savolga: “O’lishni istadim”, “Sevimli insonim bilan birga bo’lishni xohladim”, deb javob beradilar. Suitsidal harakat avvaldan rejalashtirilib, yolg’izlikda amalga oshiriladi. Bu tip 40 yoshdan katta shaxslarga xos bo’lib, kuchli depressiya natijasida amalga oshiriladi. Ta’kidlash joizki, suitsidentlarning ko’pchiligi suitsidal xulq-atvorning ilk davrlarida ichki kechinmalar o’zaro kurashadi, bir tomondan, suitsidal istak qo’zg’aladi, boshqa tomondan, farzandlar oldidagi majburiyatlar, yaqinlarga tashvish keltirmaslik, o’lim qo’rquvi va boshqa sabablar odamni suitsidal harakatlardan ushlab turadi. Boshqacha aytganda, suitsidentlar suitsidal va suitsidalga qarshi sabablar bilan kurashadilar va oxirgi sabablar kuchliroq ko’rinsada, suitsidal harakatlarni amalga oshirish ehtimoli kamroq kuzatiladi.

Amerikalik tadqiqotchi M.Laynxen suitsidga moyilligi mavjud shaxslarni o’z joniga qasd qilishdan ushlab qoluvchi 6 ta sababni ko’rsatgan:

1. Muammolarni hal qilish zarurligiga ishonch (“O’zimni qanchalik yomon his qilmay, men har doim ishonamanki, hali hammasi yo’qotilmagan”).
2. Oila oldidagi mas’uliyat (“Oilam oldida majburiyatlarim bor”, Men oilamni judayam yaxshi ko’raman va hech qachon ularni tashlab ketmayman).
3. Bolalarga g’amxo’rlik (“Men bolalarga kerakman, ular uchun yashashim shart”).
4. Suitsid qo’rquvi (“Men o’limdan va noma’lumlikdan qo’rqaman”, “Men suitsiddan so’ng o’lmay qolsam, nogiron bo’lib qolishdan qo’rqaman”).
5. Jamiyatdagi insonlarni yuz o’girishidan qo’rquv (“Agar men o’zimni o’ldirsam, meni boshqalar kuchsiz va keraksiz, deb hisoblashlari xavotirga soladi”).
6. Ma’naviy va diniy qarashlar (“Mening diniy qarashlarim suitsidga yo’l qo’ymaydi”). Eslatib o’tish joizki, suitsidga qarshi sabablarga ta’sir o’tkazgan intensiv salbiy kechinmalar suitsidentning harakatlarini susaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Каракулова, У., Бердиерова, С., & Реджепбаева, А. (2023). Bolalar muloqotning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 457-461.
2. Каракулова, У., Хайдаркулов, Х., & Хайдарова, Б. (2023). Bolaning tengdoshlari bilan muloqotining o’ziga xosligi. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 453-457.
3. Abduvakilovna, K. U. (2023). O’SMIRLIK DAVRIDA XULQ-ATVORNI SHAKLLANISHI.
4. Abduvakilovna, K. U. (2023). OGISHGAN XULQ-ATVOR VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR.

5. Karakulova, U. A., Albekova, Y. O. Q., & Abduraxmonova, H. Z. Q. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI VA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'ZARO ALOQADORLIGI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 801-806.
6. KARAKULOVA, U. (2022). OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING BOLALAR XULQATVORIGA TA'SIRI. JDPU Tahririy-Nashriyot.
7. KARAKULOVA, U. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDA MODULLI YONDASHUVNING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI .
8. KARAKULOVA, U., & BOYMATOVA, D. (2023). SHARQ PSIXOLOGIYASINING AN'ANALARI VA ZAMONAVIY SHAXS. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(6), 36-40.
9. KARAKULOVA, U. (2023). BOLA XULQ-ATVORI SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUHIT. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(6), 31-35.
10. Umida, K., & Mushtariy, R. (2023). INFLUENCE OF FAMILY CONFLICT ON THE DEVELOPMENT OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENT AGE. International Journal of Advance Scientific Research, 3(06), 52-57.
11. Karakulova, U. A., Nortoyeva, S. Q. Q., & Yangiboyeva, D. U. B. Q. (2023). OILAVIY MUHITI VA DEVIANT XULQ ATVOR SHAKLLANISHI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 796-800.
12. Umida, K., & Qizi, R. A. Z. (2023). TALABA-YOSHLARNI IJTIMOY OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.